

UDK: 619:636.92:591.13:577.16

BROYLER JO'JALARDA DISPEPSIYANING ETIOLOGIYASI VA OLDINI OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Eshburiyev S.B. – dotsent

Qarshiyev U.T. – assistent

Rustamov J. – magstrant

Bozorov J. – mustaqil izlanuvchi

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya: Dispepsiya (dyspepsia)- oshqozon va ichakning normal hazm qilish va yutilgan ovqatni so'rish uchun funksional qobiliyatining buzilishi bilan tavsiflanadi. Hamma turdagi yosh parrandalar, asosan, bir oylikkacha bo'lgan tovuq va kurkalarning jo'jalari kassalladi. Dispepsiya oddiy va toksik shaklda paydo bo'lishi mumkin. Kasallik asosan notog'ri oziqlantirish natijasida paydo bo'ladi.

***Kalit so'zlar:** saboblari, kilinik belgilari. etiologiyasi, diagnostikasi, simptom va sindromlari, differensial diagnozi. Patologoanatomik o'zgarishlari.*

***Mavzuning dolzarbligi.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil PQ-120 sonli O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026 yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risidagi qaroriga muvofiq:*

Parrandachilik sohasini rivojlantirish yo'nalishiga muvofiq mamlakat aholisini sifatli parranda go'shti va tuxum mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash, ichki va tashqi bozorlarga mahalliy parrandachilik mahsulotlarini sotishni ko'paytirishga qaratilgan chora-tadbirlar begilandi. Parrandalarni ratsional oziqlantirish ishlari ilmiy asosda yo'lga qo'yiladi. Donli ozuqalarni yetishtirish va sotib olish bo'yicha klaster tizimini joriy etish orqali korxonalar ehtiyojini ozuqalar bilan ta'minlash choralari ko'riladi. Parranda uchun ozuqa qo'shimchalari, vitaminlar va dezinfeksiyalash vositalari, parrandachilik sohasida qo'llaniladigan asbob-uskunalarini ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari ko'rish kabi vazifalar belgilangan. Respublikamiz chorvachiligining muhim va tez yetiluvchan istiqbolli tarmoqlaridan hisoblangan tovuqchilik, iqtisodiy islohotlar bois so'nggi yillarda uni rivojlantirish soha mutaxassislari va boshqa mas'ul shaxslar zimmasiga yuklangan dolzarb vazifalardan sanaladi.

Xususan, veterinariya sohasi mutaxassislari parrandalarning sog'ligini ta'minlash uchun faoliyat ko'rsatib, ba'zan davolash - profilaktik muolajalarning sifatli o'tkazilmasligi oqibatida ularning samaradorlik ko'rsatkichlari past bo'lib, yosh parrandalarning ko'plab nobud bo'lishi, o'sishdan qolishi, dori-darmonlar va oziqa sarf-xarajatining ko'payishi evaziga katta iqtisodiy zarar kuzatilmoqda.

Tovuqlarni kataklarda saqlash bugungi kunda eng samarali usul hisoblanadi. Buning afzallik tomonlari shundan iboratki, mahsuldorlikning, tuxum sifatining yuqori bo'lishi bilan bir qatorda ko'pchilik kasalliklarning oldi

olinadi. Ammo bu samaradorlik ko'rsatkichlariga erishish uchun qator zootexniya va veterinariya tadbir-muolajalarini bajarish talab etiladi.

Barcha tovuqchilik fermalari va parrandachilik xo'jaliklari «Berk-yopiq» korxonalar hisoblanib, atrofi devorlar bilan o'ralgan, avtoulovlar kirib-chiqishi uchun darvoza (dezinfeksion to'siq) hamda piyodalar o'tishi uchun alohida eshik (sanitar to'siq) bilan jihozlanishi va tegishli hududlar ko'kalamzorlashtirilishi talab etiladi. Chunki ko'pchilik tovuqchilik fermalarini moslashtirilgan binolarda va veterinariya-sanitariya nazoratisiz tashkil etilayotganligi parrandalar orasida turli yuqumli va yuqumsiz kasalliklarning tarqalish xavfini oshirib, epizootik holatni murakkablashtiradi hamda yosh parrandalarning ko'plab nobud bo'lishi, o'sishdan qolishi, tovuqlar mahsuldorligining pasayishi, dori-darmon va oziqa sarfining ko'payishi evaziga katta iqtisodiy zarar kuzatilmoqda. Shuning uchun parrandachilikda ilg'or texnologiyalarga rioya qilish, tovuqxonalarining qurilishi va jihozlanishi, sug'orish va oziqlantirish tizimining meyorida ishlashi, binolarda mikroiklimning maqbul darajada bo'lishi sog'lom epizootik vaziyat va tovuqlar mahsuldorligining yuqori bo'lishi uchun zamin yaratadi.

Bugungi kunda sanoat asosida va xususiy parrandachilik xo'jaliklari ko'rinishida faoliyat ko'rsatayotgan parrandachilikning rivojlanishiga parrandalarning yuqumli va parazitlar kasalliklari singari yuqumsiz kasalliklar ham katta to'sqinlik qilmoqda. Shuning uchun ham, parrandachilik xo'jaliklarida veterinariya - sanitariya tadbirlarini o'z vaqtida olib borish texnologik jarayonlarning uzviy qismlaridan birini tashkil etadi.

Parrandalarda dispepsiya kasalligini ertaroq aniqlash usullarini o'rganish, kasallikni oldini olishning samarali usullarini ishlab chiqish bugungi kunda veterinariya amaliyotida dolzarb mavzu hisoblanadi. Shu boisdan parrandalarda mineral moddalar almashinuvi holatini, minerallarning parrandalar organizmidagi ahamiyatini o'rganishni maqsad qilib qo'yildi.

Adabiyot ma'lumotlarining tahlili. Yosh jo'jalar dispepsiyasi oshqozon va ichaklar harakati, ulardagi sekretor, hazm qilish va so'rilish funksiyalarining buzilishi bilan tavsiflanadi. Hamma turdagi yosh parrandalar, ko'proq 1 oylikgacha bo'lgan tovuq va kurkalarining jo'jalari kasallanadi.

Jo'jalarni juda yoshligidan dag'al, qiyin hazmlanuvchi oziqlardan iborat ratsionda boqish, buzilgan, achigan va mog'orlagan oziqalar va sifatsiz, turib qolgan suv berilishi, uzoq vaqt och qoldirilib keyin oziqlantirish. Inkubatsiya texnologiyasining buzilishi, tuxum sifatining pastligi, tarkibida retinol, kartinoidlar va V guruhi vitaminlarning me'yordan kam berilishi, harorat rejimining buzilishi kabi omillar ikkilamchi sabab bo'lib xizmat qiladi.[1,4.]

Yuqorida ta'kidlangan etiologik omillar ta'sirida oshqozon va ichaklarning harakati, sekretor funksiyasi va ozuqaviy moddalarning so'rilishi izdan chiqadi. Sekretor bezlar ajratgan shira oziqalarni hazmlay olmaydi. Oshqozon shirasining kislotaligi juda past, tarkibida pepsin miqdori me'yordan kam bo'ladi. Ichaklar shirasida tripsin, amilaza, lipaza fermentlari yetishmaydi, jigarda o't suyuqligi ishlab chiqarish kamayadi. [2,3]

Oqibatda hazm kanalida yarim hazmlangan, toksik moddalar to'planib qoladi, chirituvchi mikrofloralar rivojlanadi. Intoksikatsiya va toksik dispepsiya rivojlanadi.

Holsizlanish, befarqlik, ishtahaning pasayishi yoki yo'qolishi kuzatiladi. Kasallangan jo'jalarning ko'zi yopilgan, bo'yni cho'zilgan halatda bo'ladi. Ich ketishi kasallikning patognomik belgilaridan biri hisoblanib, axlat suyuq, sarg'ish-ko'kimtir, oqish yoki jigarrang, ko'pik yoki shilimshiq modda hamda hazmlanmagan oiqalar aralashgan bo'ladi. [1,4,5]

Kloaka atrofi axlat bilan ifloslanadi. Laboratoriyaviy va patologoanatomik tekshirishlar yordamida infeksiyon va parazitarni kasalliklardan (pulloroz, salmonellyoz, esherixioz, eymirioz va boshqalar) farqlanadi.

Qizilo'ngach, oshqozon, va o'n ikki barmoqli ichakning shilliq qavati qizargan, kataral ekssudat bilan qoplangan bo'ladi. Oshqozon mushaklari oqargan ko'pincha atrofiyaga uchragan bo'ladi.

Hamma jo'jalarga 2-3 kun davomida kuchsiz dizinfeksiyalovchi vozitalar sifatida 0,1 % li kaliy permanganate, 0,01% li formalin, 0,02% li ichimlik so'dasi 0,2% litr temir sulfat kabi eritmalar suvga qo'shib beriladi. Moychechak, qizilpoycha, timin, eman daraxti ildizi damlamalari yaxshi samara beradi. Antibiotiklar, sulfanilamidlar va nitrofuranlar qo'llaniladi. Antibiotiklar oziqa bilan 1 boshga 5-10 mg hisobida, sulfanamidlar 1000 boshga 10-40 gramm, furazolidon 1 bosh jo'jaga o'rtacha 2-5 mg miqdorda beriladi. [2,5,6]

Tovuq, kurka guruhlari va yosh jo'jalarni oziqlantirish texnologiyasiga asosiy e'tibor qaratiladi. Yosh jo'jalar maxsus tayyorlangan omixta yem bilan bir kunda 5-6 marta oziqlanadi. Ratsionga yengil hazmlanuvchi oziqalar (chakki, qatiq, atsidofilli sut zardobi) kiritiladi. Yosh jo'jalarning o'n besh kunligigacha ularning ratsioniga bo'r, tuxum po'chog'i kabi aralashmalar kiritilmaydi. Davolash va profilaktik maqsadlarda, atsidofil bulon kultura (ABK, PABK) 1 boshga 1-2 ml, 3-5 kun davomida tavsiya etiladi. [1,4]

Xulosa. Yosh parradalar organizmiga kerakli bo'lgan moddalarni, yaxshilash, to'g'ri oziqlantirish qoidalariga rioya qilish, saqlash sharoitini yaxshilashga e'tibor qaratish, kasallikni oldini olishning profilaktik chora-tadbirlarini tashkillashtirish asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bakirov B., Ro'ziqulov N.B. Yosh hayvonlar va parrandalarning yuqumsiz kasalliklari. O'quv uslubiy qo'llanma. Samarqand. 2018.
2. Bakirov. B. Hayvonlarning ichki yuqumsiz kasalliklari. O'quv qo'llanma. Bakirov B. Samarqand, 2014.
3. R.B.Davlatov, X.S.Salimov, A.N.Xudjamshukurov "Parrandalarni kasalliklari,, Samarqand. 2018
4. David E. Swayne, John R. Glisson, Larry R. McDougald, Lisa K. Nolan, David L. Suarez, Venugopal L. Nair, Diseases of Poultry, Wiley-Blackwell; 13 edition, USA, 2013 year.
5. Бессарабов Б.Ф. Болезни сельскохозяйственной птицы. М., 2-е изд., Учебное пособие. Издательство. Лань, 2004 год.

6. Бессарабов Б.Ф., И.И.Мельникова, Н.К.Сушкова, С.Ю.Садчиков. Болезни птиц. Учебное пособие. Издательство. Лань, 2007 год.
7. Эшбуриев, С. Б., Нарбаев, К., & Костомахин, Н. М. (2017). Групповая профилактика нарушения витаминно-минерального обмена у высокопродуктивных коров. *Главный зоотехник*, (11), 3-8.
8. Sh, N., Elmurodov, B. A., & Eshburiev, S. B. (2022). TUXUM YONALISHDAGI TOVUQLAR MAHSULDORLIGIGA NOVAMIX PREMIKSINING TASIRI. *AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 476-479.
9. Norboev, K. N., Rakhmonov, U. A., Ruzikulov, N. B., & Eshburiev, S. B. (2022). Effectiveness of Vitaprem and Probiotic Bio–3s in Group–Prophylaxis of Hens' Hypovitaminoses. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 9(11), 308-314.
10. Rakhmonov, U. A., Norboev, K. N., Ruzikulov, N. B., & Eshburiev, S. B. (2021). Results of group-prophylactic treatment of chicken hypovitaminosis. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 243-248.
11. Нурмухамедов, Б. М., Дилмуродов, Н. Б., Эшбуриев, С. Б., & Рахмонов, У. А. (2019). Морфофункциональная характеристика яичников у коз.
12. Элмуродов, Б. А., & Эшбуриев, С. Б. (2021). ТОВУҚЛАРДА МИНЕРАЛЛАР АЛМАШИНУВИ БУЗИЛИШЛАРИНИНГ КЛИНИК БЕЛГИЛАРИ. *ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА*, 1(1).
13. Eshbo'riev, B. M., Eshbo'riev, S. B., & Djumanov, S. M. (2020). Veterinariya akusherligi fanidan amaliy-labarotoriya mashg'ulotlari. *O „quv qo „llanma, Samarqand*.
14. Eshburiyev, S. B., Kasimov, S. J., & Aslonova, M. A. (2023). Causes and symptoms of protein metabolism disorders in fish. In *Proceedings of international conference on scientific research in Natural and Social Sciences* (Vol. 2, No. 1, pp. 55-63).
15. Нурмухамедов, Б. М., Дилмуродов, Н. Б., Эшбуриев, С. Б., & Эшматов, Г. Х. (2019). Морфофункциональные изменения в яичниках коз под влиянием гонадотропных препаратов.
16. Eshburiyev, S. B., Qarshiyev, U. T., & Yusupova, Z. (2022). Prophylaxis of mineral metabolism disorders in rabbits. *Agrobiotexnologiya va veterinariya tibbiyoti ilmiy jurnali*, 399-402.
17. Karshiev, U. T., Eshburiev, S. B., & Yusupova, Z. M. Etiopathogenesis of Calcium–Phosphorus Metabolism in Rabbits. *International Journal of Current Science Research and Review*. ISSN, 2581-8341.
18. Eshbo'riyev, S. B., & Qarshiyev, U. T. (2022, December). Effectiveness of probiotics in preventing disorders of calcium-phosphorus metabolism in rabbits. In *Proceedings of International Educators Conference* (Vol. 1, No. 3, pp. 72-78).
19. Abdumajitov, V. B., Eshburiev, B. M., Eshburiev, S. B., & Sulaymonov, M. A. (2021). Etiopathogenesis and symptoms of hypocobaltosis in productive

cows. *Academicia: an international multidisciplinary research journal*, 11(2), 115-120.

20. Норбаев, К. Н., Даминов, А. С., & Эшбуриев, С. Б. (2019). Этиопатогенез вторичной остео дистрофии у коров.

21. Эшбуриев, С. Б., & Эшбуриев, Б. М. (2014). Эффективный метод профилактики нарушения витаминно-минерального обмена у коров. *The Way of Science*, 34.

22. ЭШБУРИЕВ, Б. М., & ЭШБУРИЕВ, С. Б. (2013). Профилактика микроэлементозов у стельных коров в фермерских хозяйствах Узбекистана. *Вестник ветеринарии*, (3), 68-70.

23. Bakhtiyorovich, E. S., & SaifiddinJakhongirUgli, K. (2023). DIAGNOSIS OF PROTEIN METABOLISM DISORDERS IN FISH. *American Journal Of Agriculture And Horticulture Innovations*, 3(05), 04-12.

24. Aslonova, M. A., Toshmurodov, S. S., & Eshburiyev, S. B. (2023). SUV TARKIBI VA MUHITINI O'ZGARTIRUVCHI OMILLAR TA'SIRIDA BALIQLARDA KELIB CHIQADIGAN KASALLIKLAR. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 16(4), 59-66.

25. Eshburiyev, S., Kasimov, S., Badirova, K., & Shomurodov, M. (2021). ПРОФИЛАКТИКА НАРУШЕНИЯ БЕЛКОВОГО ОБМЕНА У РЫБ. *Вестник ветеринарии и животноводства (ssuv. uz)*, 1(1).

26. Eshburiev, S. B. (2011). *Etiopathogenesis and prevention of secondary osteodystrophy of cows* (Doctoral dissertation, Samarkand State University of Veterinary Medicine, Livestock and Biotechnology).

27. Эшбуриев, Б. М., Нормурадова, З. Ф., & Эшбуриев, С. Б. (2017). Усовершенствование методов лечения диспепсии телят.

28. Eshbo'riyev, S. B., & Qarshiyev, U. T. (2022). Qayonlarda kaltsiy-fosfor almashishi buzilishini oldini olishda probiotiklarning samarali. *Xalqaro pedagoglar konferensiyasi materiallarida (3-jild, 72-78-betlar)*.

29. Эшбуриев, С. Б. (2011). Этиопатогенез и профилактика вторичной остео дистрофии коров. *Дисс.... канд. вет. наук. Самарканд*, 46.

30. Norboev, Q. N., Eshburiev, B. M., Eshburiev, S. B., & Xudoyberganov, S. (2017). Buzoqlarda alimentar anemiya kasalligining diagnostikasi va profilaktikasi bo'yicha tavsiyalar.

31. Норбоев ҚН, Э. Б., Эшбуриев, С. Б., & Рахмонов, У. А. Бройлер жўжалар ва тухум йўналишидаги товукларни парвалишлаш бўйича tavsiyalar. *Самарқанд–2018*.

32. Erbotayev, S. X., & Eshburiyev, S. B. (2023). ASALARILARNING KIMYOVIY MODDALARDAN ZAXARLANISHLARINI ANIQLASH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 20(8), 126-131.

33. Norboyev, K. N., Rakhmanov, U. A., Ata-Kurbanov, A. E., & Eshburiyev, S. B. (2023). The use of Vitatonik feed additives and Bio-S3 probiotic on the productivity and resistance of laying hens. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 462, p. 01009). EDP Sciences.

34. Sh, X. N., Ergashev, J., & Eshburiyev, S. B. (2022). TOVUQLARDA VITAMIN VA MINERALLAR ALMASHINUVI BUZILISHLARINING KECHISH XUSUSIYATLARI. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 480-483.

35. Эшбуриев, С., Каршиев, У., & Юсупова, З. (2022). Этиологические факторы нарушения кальция и фосфора у кроликов. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности*, 1(2), 300-306.

36. Эшбуриев, С. Б., & Бадирова, К. А. (2021). БАЛИҚЛАРДА ОҚСИЛЛАР АЛМАШИНУВИ БУЗИЛИШЛАРИНИНГ ПРОФИЛАКТИКАСИ. *ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА*, 1(1).

37. Abdumajitov, V. B., Eshburiev, B. M., Eshburiev, S. B., & Sulaymonov, M. A. (2021). Etiopathogenesis and symptoms of hypocobaltosis in productive cows. *Academicia: an international multidisciplinary research journal*, 11(2), 115-120.

38. Абдураимова, Г. Т., & Эшбуриев, С. Б. (2021). Нарушения обмена пчел.

39. Эшбуриева, С. Б., & Сулаймонова, М. А. (2021). Бронхит у кур-бройлеров: причины и клинические симптомы.